

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK-
PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI**

Xallokova Maksudaxon Ergashevna

*Farg‘ona Davlat Universiteti Maktabgacha ta‘lim kafedrası
fanlari boyicha falsafa doktori (PhD), dotsenti*

pedagogika

Maktabgacha yosh davri inson hayotidagi eng muhim rivojlanish bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda bolaning jismoniy, psixik, intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishining asoslari shakllanadi. Aynan maktabgacha yoshda bolaning shaxs sifatida rivojlanishi, atrof-muhitni anglashga bo‘lgan qiziqishi, nutqi, tafakkuri, xulq-atvori va muloqot madaniyati faol rivojlanadi. Mazkur yosh bosqichining psixologik-pedagogik xususiyatlarini chuqur o‘rganish ta‘lim-tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi o‘ziga xos psixologik jarayonlar bilan xarakterlanadi. Bu davrda bolaning bilish faoligi ortadi, tasavvuri kengayadi va dunyoni idrok etish qobiliyati rivojlanadi. Bola atrof-dagi predmet va hodisalarga qiziqish bilan munosabatda bo‘lib, kuzatish, taqqoslash, tajriba qilish va savollar berish orqali bilim olishga intiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari

Bilish jarayonlarining rivojlanishi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonlari intensiv rivojlanadi. Ularning: sezgi; idrok; diqqat; xotira; tafakkur; tasavvur kabi psixik jarayonlari faol shakllanadi.

Sezgi — predmet va hodisalarning ayrim xususiyatlarini sezgi organlari orqali aks ettirish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sezgi orqali atrof-muhit haqidagi dastlabki tasavvurlar shakllanadi.

Bolaning ranglarni ko‘rishi, tovushlarni eshitishi, sovuq va issiqni his qilishi, hidlarni sezish sezgi jarayoniga kiradi. Pedagog bolaga qizil va sariq rangli kubiklarni beradi. Bola ularning rangini, shaklini, kattaligini sezgi organlari orqali farqlaydi. Yoki bola limonni tatib ko‘rib uning nordonligini his qiladi. Sezgi bolaning idrokini, tafakkurini, nutqini rivojlantirishning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, maktabgacha ta‘limda ko‘rgazmali vositalar, tabiiy predmetlar, sensor o‘yinlardan keng foydalaniladi.

Idrok — predmet va hodisalarni yaxlit holda ongda aks ettirish jarayonidir.

Idrok sezgiga nisbatan murakkabroq bo‘lib, predmetning barcha xususiyatlarini birgalikda qabul qilishni anglatadi. Bola olmani dumaloq, qizil, shirin meva sifatida yaxlit holda tasavvur qiladi. Yoki bola mashinani nafaqat ko‘radi, balki uning: tovushini eshitadi, harakatini kuzatadi, vazifasini tushunadi. Idrok bolada kuzatuvchanlikni, predmetlarni taqqoslashni, tafakkurni rivojlantiradi. Natijada

pedagog samaradorlikni oshirish uchun kuzatish, tajrib, ekskursiya metodlaridan foydalanadi.

Diqqat — ongning muayyan obyektga yo‘naltirilishi va jamlanishidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqati ko‘proq ixtiyorsiz xarakterga ega bo‘ladi. Pedagog rangli kaptokchalarni ko‘rsatganda bolalarning diqqati darhol unga qaratiladi. Yoki qiziqarli ertak aytilganda bola uzoq vaqt tinglab o‘tirishi mumkin.

Diqqat bilimlarni o‘zlashtirish, topshiriqlarni bajarish, faoliyatni boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Bolalarda diqqatni rivojlantirish uchun tarbiyachi didaktik o‘yinlar, harakatli mashqlar, qiziqarli topshiriqlardan foydalaniladi.

Xotira — olingan bilim va taassurotlarni eslab qolish, saqlash hamda qayta tiklash jarayonidir. Maktabgacha yoshda bolalarda obrazli va emotsional xotira yaxshi rivojlanadi. Bola ertak nomidan ko‘ra ko‘proq ertak qahramonlarini eslab qoladi, she‘rni yodlaydi, avval o‘ynagan o‘yinni takrorlay oladi. Yoki bayramdagi voqealarni uzoq vaqt eslab yuradi.

Xotira bolalar uchun bilimlarni mustahkamlash, nutqni rivojlantirish, tafakkurni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta‘limda bolalarga she‘r yodlash, takrorlash, didaktik o‘yinlar qo‘llaniladi va bu orqali bolaning xotirasi rivojlantiriladi.

Tafakkur — predmet va hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanish hamda munosabatlarni umumlashtirib aks ettirish jarayonidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ko‘rgazmali-obrazli tafakkur rivojlanadi. Bola kubiklardan uy yasaydi, predmetlarni taqqoslaydi, “nega?”, “nima uchun?” kabi savollar beradi. “Nega qor eriydi?”, “Nima uchun qushlar uchadi?”. Bu bolaning tafakkuri rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

Tafakkur bolaga muammoni hal qilish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda va sabab-oqibat bog‘lanishlarini tushunishda yordam beradi. Maktabgacha ta‘limda tarbiyachi bolalar tafakkurini rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlar, tajribalar, mantiqiy o‘yinlardan foydalaniladi.

Tasavvur — ilgari idrok etilgan obrazlarni ongda qayta tiklash va yangi obrazlar yaratish jarayonidir. Tasavvur bolaning ijodkorligi va fantaziyasining asosini tashkil etadi.

Bola ertak to‘qiydi, oddiy tayoqchani “ot” deb tasavvur qiladi va uni minob yuradi, rasm chizishda yangi obrazlar yaratadi. Yoki “Bulutlar paxtaga o‘xshaydi”, — deb obrazli fikr bildiradi. Tafakkuning pedagogic ahamiyati shundaki, tasavvur bolalarda ijodkorlikni, fantaziyani, estetik fikrlashni rivojlantiradi. Pedagogik faoliyatda tarbiyachi dramatisatsiya, ijodiy o‘yinlar, rasm chizish faoliyatlari ko‘proq tashkil etiladi.

Maktabgacha ta‘lim davrida bolalar predmetlarning tashqi belgilarini tez idrok etadi, rang, shakl, hajm va tovushlarni farqlashni o‘rganadi. Bilishga bo‘lgan tabiiy qiziqish bolaning intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ko'rgazmali-obrazli tafakkur ko'proq rivojlanishi tadqiqotlarda isborlangan. Bola predmetlarni amaliy harakatlar va tasvirlar orqali anglaydi. Kichik maktabgacha yosh davrdan kata maktabgacha yosh davrga o'tishi bilan elementar mantiqiy tafakkur ham shakllana boshlaydi. Bola taqqoslaydi, guruhlaydi, sabab-oqibat bog'lanishlarini tushunishga harakat qiladi. Albatta bu jarayonni rivojlantirishda didaktik o'yinlar va muammoli vaziyatlar muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Nutq maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Ushbu davrda bolalarda so'z boyligi kengayadi, grammatik jihatdan to'g'ri gapirish shakllanadi va dialogik va monologik nutq rivojlanadi. Bola nutq orqali o'z fikrini ifodalash, muloqot qilish va atrofdegilar bilan ijtimoiy munosabat o'rnatishni o'rganadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar hissiyotlarga boy bo'lib, ular emotsional ta'sirlarga tez javob qaytaradi. Ushbu davrda bolalar quvonchni, hayratlanishni, qo'rquvni, xafagarchilikni va mehr kabi hissiyotlar faol namoyish qiladi. Pedagog va otionalarning ijobiy munosabati bolaning emotsional barqarorligini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

3-7 yosh davrda bola tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilishni o'rganadi. Bolalarni ijtimoiy-xissiy rivojlanish sohasi syujetli-rolli o'yinlar, ijtimoiy rollar, hamkorlik qilish, navbat kutish, nizolarni hal qilishni orqali rivojlanadi. Ijtimoiy rivojlanish bolaning kelajakdagi shaxsiy va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishga asos bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini hisobga olish ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ushbu yosh davrida bolaning faoliyat turi, qiziqishi va rivojlanish ehtiyojlariga mos pedagogik yondashuvlarni qo'llash zarur hisoblanadi.

Avvalo, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin asosiy faoliyat turi hisoblanadi. O'yin orqali bola bilim oladi, dunyoni anglaydi, muloqot qiladi va ijodkorligini namoyon etadi. Shundan kelib chiqadiki ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalaridan foydalanish muhim pedagogik talab hisoblanadi.

Shuningdek, bu yoshdagi bolalar kattalar faoliyatiga taqlid qilish orqali ko'plab ko'nikmalarni egallaydi. Pedagogning nutqi, xulqi va munosabati bola uchun namuna vazifasini bajaradi. Shu bois pedagogning kasbiy madaniyati va shaxsiy namunasi katta ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy harakatga ehtiyoj yuqori bo'ladi. Ular uzoq vaqt bir joyda o'tira olmaydi. Ta'lim jarayonida faoliyatlarda harakatli o'yinlar, jismoniy daqiqalar hamda rivojlantiruvchi faoliyat turlarini tashkil etish zarur. Bu bolaning sog'lom rivojlanishini ta'minlaydi.

Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqarli va ko'rgazmali faoliyatga tez jalb etiladi. Ta'lim jarayonida rangli materiallar, multimedia vositalari, amaliy topshiriqlar, tajribalar va interfaol metodlardan foydalanish samarali natija beradi.

Shu bilan birga, har bir bolaning rivojlanish sur'ati o'ziga xos bo'ladi. Ayrim bolalar tez o'zlashtirsa, boshqalari ko'proq yordam va vaqt talab qiladi. Bundan kelib chiqadi-ki, pedagog individual yondashuv asosida faoliyat olib borishi zarur.

Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari sifatida o'yin faoliyatini samarali tashkil etish, ijobiy emotsional muhit yaratish, bolaning jismoniy faolligini qo'llab-quvvatlash, ko'rgazmali va interfaol metodlardan foydalanish hamda individual yondashuv asosida pedagogik faoliyat olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur shart-sharoitlar bolaning bilish faolligi, mustaqil fikrlashi, kommunikativligi va ijodkorligini rivojlantirishga xizmat qiladi.



Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning pedagogik shart-sharoitlari

Bolalarning samarali rivojlanishini ta'minlash uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratish muhimdir. Mazkur sharoitlar bolaning har tomonlama rivojlanishi va ijtimoiy moslashuviga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini hisobga olish ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning muhim omili hisoblanadi. Ushbu yosh davrining o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda tashkil etilgan pedagogik faoliyat bolaning individual salohiyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlashi va barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini hisobga olish ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning muhim omili hisoblanadi. Shu bois shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning xorijiy va milliy tajribalarini o'rganish hamda ularni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish bolaning individual salohiyatini rivojlantirish va barkamol shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020.
 2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O'RQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019.
 3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son qarori bilan tasdiqlangan "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti" // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.12.2020.
 4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
 5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6097-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
 6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
- O'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar**
7. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. Takomillashtirilgan ikkinchi nashr. — Toshkent, 2022.
 8. Hasanboyeva O.U. *Maktabgacha pedagogika*. — Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2018.
 9. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., A'zamova M.N. *Maktabgacha pedagogika*. — Toshkent: Tafakkur, 2019.
 10. Nishonova Z.T., Alimuhamedova D.A. *Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya*. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018.
 11. Inomova M.O. *Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi*. — Toshkent: Fan, 1999.
 12. Podlasiy I.P. *Pedagogika*. — Moskva: Vldos, 2008.
 13. Amonashvili Sh.A. *Здравствьюме, demu!*. — Moskva: Prosvesheniye, 1983.
 14. Dewey J. *Experience and Education*. — New York: Collier Books, 1938.

15. Rogers C. *Freedom to Learn for the 80's*. — Columbus: Charles E. Merrill Publishing Company, 1983.
16. Maslow A. *Motivation and Personality*. — New York: Harper & Row Publishers, 1954.
17. Gardner H. *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. — New York: Basic Books, 1983.
18. Выготский Л.С. *Педагогическая психология*. — Москва: Педагогика, 1991.
19. Piaget J. *The Psychology of the Child*. — New York: Basic Books, 1969.
20. Montessori M. *The Montessori Method*. — New York: Schocken Books, 1964.
21. Malaguzzi L. *The Hundred Languages of Children*. — Reggio Emilia: Reggio Children, 1998.

Elektron manbalar

Lex.uz

[Ziyonet axborot-ta'lim portali](http://Ziyonet.uz)

Gov.uz